

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025  
IJTIMOIY  
FANLAR

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|                                                                                                                                 |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Sh.T.Abbosova</b>                                                                                                            |     |
| Ma'furaviy tahdidlarni bartaraf etishda milliy g'oyaning ro'li .....                                                            | 98  |
| <b>Б.А.Абилова</b>                                                                                                              |     |
| Суфийские ордена и их роль в историко-политических процессах средневековья .....                                                | 102 |
| <b>X.Q.Abdumutalov</b>                                                                                                          |     |
| Yangi O'zbekistonda komil insonni shakllantrishda milliy g'oyaning o'rni.....                                                   | 107 |
| <b>M.M.Gulamova Xoja</b>                                                                                                        |     |
| Muhammad Porsoning irfoniy qarashlarida insonning ma'naviy kamoloti va ontologik mohiyati ..                                    | 110 |
| <b>R.Sh.Alisher</b>                                                                                                             |     |
| Mirbobo Naqshbandiyni inson kamoloti qalbni sayqallash, unga ma'naviy ozuqa berish haqidagi mulohazalari .....                  | 115 |
| <b>S.S.Hamroyev, D.Sh.Shuxratova</b>                                                                                            |     |
| Yangi O'zbekistonda oila institutini isloh qilishning ijtimoiy-huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi .....                     | 119 |
| <b>F.S.Qosimov</b>                                                                                                              |     |
| Falsafa nigohida inson kapitalining shakllanishi va taraqqiyotdagi roli.....                                                    | 124 |
| <b>B.M.Madaminov</b>                                                                                                            |     |
| Yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning nazariy-metodologik asoslari ..... | 129 |
| <b>F.F.Dadaboyev</b>                                                                                                            |     |
| Yangi O'zbekistonda tadbikorlik faoliyatining rivojlanishida halollik va axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy roli .....            | 133 |
| <b>M.O.Oripova</b>                                                                                                              |     |
| Jamiyatda inson begonalashuvi fenomenining mohiyati va falsafiy mazmuni .....                                                   | 137 |
| <b>Д.Р.Вахабова</b>                                                                                                             |     |
| Возникновение философских взглядов в персидско-таджикской литературе (Абу Абдулла Рудаки) .....                                 | 142 |
| <b>A.A.Salmonov</b>                                                                                                             |     |
| Inklyuziv jamiyat: tushuncha va falsafiy tahlili.....                                                                           | 147 |

## SIYOSAT

|                                                                                                        |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>A.A.Ahrorqulov, A.To'xtasinov</b>                                                                   |     |
| Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish omillari .....                      | 152 |
| <b>G.O.Sa'diyeva</b>                                                                                   |     |
| Markaziy Osiyodagi zamonaviy geosiyosiy tendensiyalar .....                                            | 156 |
| <b>R.A.To'ychiyeva</b>                                                                                 |     |
| Yangi davrda Hindiston tashqi siyosatidagi o'ziga xos ustuvor va farqli jihatlar .....                 | 163 |
| <b>D.Mamadjonova</b>                                                                                   |     |
| Prokuratura tizimida inson huquqlarini himoya qilish: qonunchilik asoslari va amaliyot .....           | 172 |
| <b>X.Qodirov</b>                                                                                       |     |
| Nodavlat notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni.....                      | 176 |
| <b>P.I.Ovulov</b>                                                                                      |     |
| Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi ..... | 180 |

## TARIX

|                                                                                                     |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>B.B.Iminov</b>                                                                                   |     |
| O'zbekiston Respublikasida nodavlat ta'lim muassasalarining vujudga kelish tarixi .....             | 185 |
| <b>A.U.Hamroyev</b>                                                                                 |     |
| Amir Haydar – ijtimoiy adolat tarafdori bo'lgan hukmdor.....                                        | 190 |
| <b>A.U.Hamroyev</b>                                                                                 |     |
| Gulshanul muluk asarida mang'itlar boshqaruvi davrida jamiyat iqtisodiy hayotining yoritilishi .... | 194 |
| <b>M.M.Azimova</b>                                                                                  |     |
| Farg'ona vodiysida qishloq-vrachlik punktlari faoliyatidagi o'zgarishlar tahlili.....               | 198 |



UO'K: 341.242.3+343.2

**PROKURATURA TIZIMIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH: QONUNCHILIK ASOSLARI VA AMALIYOT****ЗАЩИТА ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В СИСТЕМЕ ПРОКУРАТУРЫ: ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА****PROTECTION OF HUMAN RIGHTS IN THE PROSECUTOR'S OFFICE SYSTEM: LEGAL BASIS AND PRACTICE****Mamadjonova Dilfuza** 

Huquq ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada prokuratura organlarining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyati va bu faoliyatni tartibga soluvchi asosiy qonunchilik hujjatlari tahlil qilinadi. Muallif prokuratura institutining tarixiy shakllanishi, uning konstitutsiyaviy maqomi va inson huquqlarini ta'minlashdagi o'rni haqida fikr yuritadi. Maqolada, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, xalqaro huquq normalari hamda sud-huquq islohotlari doirasida prokuratura vakolatlarining kengaytirilishi va inson huquqlarini samarali himoya qilish mexanizmlari yoritilgan. Tahlillar orqali ushbu sohada dolzarb muammolar va ularni hal etish yo'llari taklif etilgan.

**Abstract**

This article analyzes the activities of the prosecutor's office in the field of protection of human rights and the main legislative acts regulating these activities. The author reflects on the historical formation of the Institute of Public Prosecutions, its constitutional status and its role in ensuring human rights. The article also covers the current laws of the Republic of Uzbekistan, the norms of international law and the mechanisms for the expansion of the powers of the prosecutor's office and the effective protection of human rights within the framework of judicial reform. Through analyzes, current problems in this area and ways to solve them have been proposed.

**Аннотация**

В данной статье анализируется деятельность органов прокуратуры в области защиты прав человека и основные законодательные акты, регулирующие эту деятельность. Автор размышляет об историческом становлении института прокуратуры, ее конституционном статусе и роли в обеспечении прав человека. В статье также освещаются действующие законы Республики Узбекистан, нормы международного права и механизмы эффективной защиты прав человека и расширение полномочий прокуратуры в рамках судебно-правовой реформы. Посредством анализа были предложены актуальные проблемы в этой области и пути их решения.

**Kalit so'zlar:** *adolat, prokuratura, qonun, huquqiy madaniyat, inson huquqlari, hujjat.***Ключевые слова:** *правосудие, прокуратура, право, правовая культура, права человека, документ.***Key words:** *Justice, prosecutor's office, law, legal culture, human rights, document.***KIRISH**

Bugungi kunda inson sha'ni va qadr-qimmati masalasi juda dolzarb hisoblanib, mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar qatorida sud-huquq islohotlari nihoyatda e'tiborli bo'lib, ayniqsa prokuratura sohasiga doir qonun hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar, ya'ni bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning zamirida fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi mujassamligi davlatimizning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari dadil borayotganligidan dalolat, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Inson huquqlarini himoya qilish jamiyatda adolatni barpo etish demakdir. shunday ekan, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning qonuniy asoslarini yaratish, inson huquqlari poymol qilinishining oldini oluvchi tizimga asos solish va vakolatli davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish davlatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. ushbu vazifalar amalga oshirilishida prokuratura organlarining faoliyati ahamiyatlidir.

**MAVZUNING O'RGANILGANLIK DARAJASI**

Demokratik davlatlar amaliyotida inson huquqlarini kafolatlashning turli xil mexanizm va usullari ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur mexanizm va usullarning samarasini quyidagi bir qator omillar asosida baholash mumkin: inson xukuq va erkinliklari ifoda etilgan qonun hujjatining huquqiy maqomi bilan; shaxs xuquklarining kafolatlari qaysi qonun asosida belgilanganligi; shaxs xuquqlarini kafolatlashni amalga oshirish mexanizmi me'yorlarini kafolatlovchi organ maqomiga binoan; inson xuquqlarini kafolatlovchi organlar umumiy tizimi va mexanizmining mavjudligi va boshqalar.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasida inson huquqlari va manfaatlari yuqori o'ringa qo'yilgan. jumladan, konstitutsiyaning 13–moddasida “O'zbekiston respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr–qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”, deb belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda prokuratura organlari faoliyatining baholash mezonlari sifatida bir qator ko'rsatkichlar asos qilib olindi, shu jumladan, mazkur hududda qonuniylik holati, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlari himoyasi ta'minlanishi belgilandi.

“Prokuratura to'g'risida”gi qonunning 4-moddasiga muvofiq fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari fuqarolarning qonunlarimizda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklarini himoya qilish, keng ko'lamda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarni qonuniy himoya qilish hamda qo'llab quvvatlash, har bir fuqaro, jismoniy va yuridik shaxs har qanday holatda o'zining qonun muhofazasida ekanligini his qilish muhitini yuzaga keltirishga qaratildi[1].

“Prokuratura to'g'risida”gi qonunning 24-moddasiga muvofiq fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilinishi ustidan nazorat predmetiga vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxona va muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi kiritilgan.

Fuqarolarning O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi va qonunlarida belgilab berilgan huquq va erkinliklarini himoya qilish prokuratura organlarining jamiyat oldidagi eng muhim vazifasidir. bunda prokurorning vazifasi:

Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini, ularning daxlsizlik, fikrlash, so'z va e'tiqod hamda vijdon erkinligi huquqlarini kafolatlarini ta'minlash;

O'zbekiston respublikasi fuqarolarining siyosiy huquqlarini, ya'ni jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish, O'zbekiston respublikasi qonunlariga muvofiq jamoat birlashmalariga, siyosiy partiyalarga birlashish va ommaviy harakatlarda qatnashish huquqlarini amalga oshirishda ularning erkinliklarini himoyalash;

shaxsning vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqini ushbu idoralar tomonidan ta'minlanishini nazorat qilish;

fuqarolarning mulkka ega bo'lish huquqini, ularning mulkini daxlsizligini muhofaza qilish;

shaxsning mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli hamda xavfsiz mehnat sharoitlarida ishlashga, o'z faoliyatlari uchun o'z vaqtida haq olish, mehnat ta'tiliga chiqish hamda qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniishga doir huquqlarini himoyalash;

har bir shaxsning qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy himoyalaniish, pensiya ta'minoti huquqlarini aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj yolg'izlar, nogironlar, qariyalar va aholining kam ta'minlangan qismiga alohida e'tibor bergan holda muhofazasini ta'minlash;

bozor munosabatlari rivojlanayotgan bir paytda sog'liqni saqlash, onalik va bolalikni himoyalash, bepul malakali tibbiy xizmat ko'rsatishga oid huquqlarni muhofaza qilish;

fuqarolarning bilim olish huquqi, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlari amalga oshirilishiga ko'mak berishga yo'naltirilishi lozim[2].

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda prokuror “prokuratura to'g'risida”gi qonunning 25–moddasiga muvofiq quyidagi vakolatlardan foydalanadi:

fuqaroning huquq va erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi arizalar, shikoyatlar hamda boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqadiva tekshiradi;

arizachilarga ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish tartibini tushuntiradi;

fuqaroning huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish va bartaraf etish, qonunni buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish hamda etkazilgan zararni qoplash chora-tadbirlarini ko'radi.

prokuratura o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda "prokuratura to'g'risida"gi qonunning 22–moddasida nazarda tutilgan vakolatlardan foydalanadi.

qonun buzilishi aniqlangan taqdirda prokuror ushbu qonunda hamda boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko'rishga majbur.

jumladan dalolatnoma va boshqa zarur hujjatlar, materiallar va ma'lumotlar taqdim etishning tekshirishlar va taftishlar o'tkazishni, mutahassislar ajratishni rad etishda, prokuraturaga kelishdan, qonun buzganlik to'g'risida tushuntirish berishdan bo'yin tovlashda ifodalangan prokurorning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish va uning talablarini bajarmaslik, xuddi shuningdek prokuror fikri bildirilgan hujjatlarni ko'rib chiqmaslik yoki ularni to'liq hajmda bajarmaslik, shuningdek prokurorning g'ayriqonuniy qaror qabul qilishiga erishish maqsadida unga qanday shaklda bo'lmasin biron bir ta'sir ko'rsatganlik uchun qonunda ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Qonun jinoyat ishini yuritish uchun ma'sul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar ro'yxatini belgilagan bo'lib, ushbu organlar o'zlariga qonun bilan yuklatilgan funktsiyalardan tashqari, jinoyat protsessida inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlanishi uchun mas'uldirlar.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish printsiplining tarkibiy qismlaridan biri shundan iboratki, fuqarolar buzilgan huquq va erkinliklarini tiklashda o'zlariga etkazilgan zararni davlat organlari va mansabdor shaxslaridan undirib olishlari mumkin.

Bundan tashqari, o'zbekiston respublikasining jinoyat–protsessual kodeksi shaxsning qonunga xilof ravishda ushlab turilganligi, ehtiyot chorasi sifatida qonunga xilof ravishda qamoqda saqlanganligi yoki uy qamog'iga joylashtirilganligi, pasportining amal qilishi qonunga xilof ravishda to'xtatib turilganligi, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingani tufayli vazifasidan qonunga xilof ravishda chetlashtirilganligi yoxud tibbiy muassasaga qonunga xilof ravishda joylashtirilganligi natijasida unga etkazilgan mulkiy zararni undirish hamda ma'naviy ziyon oqibatlari bartaraf etilishini ko'zda tutadi (jpk 302-313–moddalar).

Sud tomonidan oqlov xukmi chiqarilganda, jinoyat ish yurituvchi jinoiy hodisa yuz bermaganligi yoki jinoyat tarkibi bo'lmaganligi yoki shaxsning sodir qilingan jinoyatga daxli bo'lmaganligi asosida tugatilgan hollar shaxsni reabilitatsiya etishga asos bo'ladi.

Shuningdek, reabilitatsiya etilishning mulkiy va boshqa oqibatlari nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra qonunga xilof ravishda ushlab turilgan, ehtiyot chorasi sifatida qonunga xilof ravishda qamoqda saqlangan yoki uy qamog'iga joylashtirilgan, pasportining amal qilishi qonunga xilof ravishda to'xtatib turilgan, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingani tufayli vazifasidan qonunga xilof ravishda chetlashtirilgan yoxud tibbiy muassasaga qonunga xilof ravishda joylashtirilgan har bir shaxsning buzilgan konstitutsiyaviy huquq va qonuniy manfaatlarini tiklanishi shart. davlat va mansabdor shaxslar bunga mas'uldirlar. shuning uchun ham reabilitatsiya qilingan shaxs o'ziga etkazilgan mulkiy zararni qoplanishini, shuningdek, ma'naviy ziyon oqibatlarini bartaraf etilishini talab qilishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 19, 25, 26, 27-moddalarida O'zbekiston Respublikasi fuqarosi konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsiz ekanligi, ulardan sud qarorisiz hech kim mahrum qilishga yoki cheklab qo'yishga haqli emasligi, hech kim qonunga asoslanmagan holda xibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emasligi, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxs faqat sud tomonidan aybdor deb topilishi, unga o'zini himoya qilish yoki himoya huquqidan foydalanishi imkoniyatlari yaratilishi, qiynoqqa solish, zo'ravonlik qilish, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tazyiqqa duchor qilish, hayotiga aralashish, sha'ni va obro'siga tajovuz qilish, hayotiga aralashish, turar joyiga daxl qilish qat'iy man qilinishi belgilangan. mazkur qoidalar xalqaro hujjatlardan "inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi"ning 5,7,8,9,10,11 va 12 moddalarida "fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt"ning 9 va 10 moddalarida qaydetilgan.

Bundan tashqari, reabilitatsiya etilgan shaxsning boshqa huquqlarini tiklash qonunchilikda nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra qonunga xilof ravishda hukm qilingani, qonunga xilof ravishda tibbiy muassasaga joylashtirilgani, ehtiyot chorasi tariqasida qonunga xilof ravishda qamoqqa olingani yoki uy qamog'iga joylashtirilgani, qonunga xilof ravishda ushlab turilgani tufayli ishdan ozod qilingan yoki ishda ayblanuvchi, sudlanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinishi munosabati bilan

## SIYOSAT

lavozimidan qonunga xilof ravishda chetlashtirilgan shaxs oldin ishlagan ishiga tiklanishi lozim, korxona, muassasa, tashkilot tugatilgan yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar uni oldingi ishlab turgan ishiga tiklash imkoniyatini bermagan taqdirda unga avvalgisiga teng boshqa ish berilishi lozim (jpk 310-modda).

O'zbekiston Respublikasi bosh prokurorining 2016-yil 22-fevraldagi "jinoyatchilikka qarshi kurash, surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida qonun ustuvorligini hamda shaxsning huquq va erkinliklari himoyasini samarali ta'minlash to'g'risida"gi 129-sonli buyrug'ida o'zbekiston respublikasi prokuratura organlarining jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi asosiy vazifalari sifatida surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruvni amalga oshiruvchi organlarning bu boradagi faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish, tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergovni olib borish orqali qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, o'zbekiston respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoyalash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat ekanligi ta'kidlangan.

Shuningdek, o'zbekiston respublikasi bosh prokurorining 2018-yil 8-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi bosh prokuraturasining fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'limi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 192-sonli buyrug'iga ko'ra bosh prokuratura tarkibiy tarmoqlarining fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorligini ta'minlash; fuqarolarning huquq va erkinliklari sohasida umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari, shuningdek, milliy qonunchilik talablariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash choralarini ko'rish fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'limining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

shuningdek, bosh prokuraturaning tegishli tarkibiy tarmoqlaridan:

-fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan shaxsiy va siyosiy huquqlari, daxlsizlik, fikrlash hamda vijdon erkinligi kafolatlarini himoya qilish, diniy e'tiqod huquqini ta'minlaydi;

-qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash hamda bolalar mehnati va majburiy mehnatning oldini olish sohalariga doir umumlashtirilgan ma'lumotlarni olish hamda inson huquqlari sohasidagi xalqaro konventsionalar va shartnomalarga rioya etilishini tahlil qiladi.

Bundan tashqari, fuqarolarni qabul qiladi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi.

**XULOSA**

Amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan barcha harakatlar insonparvarlik tamoyillariga asoslangan demokratik huquqiy davlat barpo etish, mamlakatimizning jahondagi obro'yini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, fuqarolarning konstitutsiyada kafolatlangan huquqlarining so'zsiz ta'minlanishiga olib keladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ne'matov X. "Huquqiy himoyaning mustahkam poydevori". Tt.: / "Qonun himoyasida", 2003 yil, 1 (85)-son.
2. B.X.Po'latov. Prokuror nazorati // Darslik. -T: O'zbekiston, 2008. 114-bet.
3. N. Ismatova, O. Karimova. Davlat va huquq asoslari. Darslik / – Birinchi nashr. – Toshkent.: Yangiyul Poligraph Service, 2018.
4. Boboyev X.B., Saidov A.X. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. – T., 2011.